



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **3,6 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **0,8 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **4,3 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyun oyida Toshkent shahrida 6,3 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 2,0 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,6 mingta (5,4%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 64,9 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Yunusobod tumanida (13,7%), Chilonzorda (12,7%), Mirzo Ulug'bekda (11,8%) va Olmazorda (10,2%) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Toshkent shahar	66,6	100,0	64,9	100,0
tumanlar:				
Uchtepa	5,6	8,4	5,5	8,5
Bektemir	1,4	2,1	1,4	2,2
Yunusobod	9,1	13,7	8,9	13,7
Mirzo Ulug'bek	7,8	11,7	7,7	11,9
Mirobod	5,8	8,7	5,6	8,6
Shayxontohur	6,7	10,1	6,5	10,0
Olmazor	6,7	10,1	6,6	10,2
Sergeli	3,8	5,7	3,7	5,7
Yakkasaroy	6,0	9,0	5,9	9,1
Yashnobod	5,1	7,7	4,8	7,4
Chilonzor	8,6	12,8	8,3	12,7

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,3 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,9 f.p. kamaygan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,6% sanoatda, 19,7% savdoda, 7,4% qurilishda, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,3% tashish va saqlash, 3,8% axborot va aloqa, 2,0% soq'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 34,9% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanva-iyun holatiga 6391 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod tumanida (919 ta), Chilonzor (797 ta), Mirzo Uluq'bek (765 ta) va Olmazor tumanlarida (664 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (143 ta), Sirg'ali (382 ta) hamda Yashnobod (485 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (1645 ta), sanoatda (1214 ta) va qurilishda (735 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (92 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (121 ta), tashish va saqlashda (257 ta) va axborot va aloqada (321 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami:	5818	6391
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	153	121
Sanoat	1576	1214
Qurilish	586	735
Savdo	1010	1645
Tashish va saqlash	233	257
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	543	504
Axborot va aloqa	252	321
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	82	92
Boshqa turlari	1383	1502

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyul holatiga 56,4 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9,1 mingta, oilaviy korxonalar – 2,0 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 43,9 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,2 mingtani va boshqalar 1,2 mingtani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4044 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan

581 taga yoki 14,3 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 1974 tasi qo'shma korxonalar, 2070 tasi esa

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumani 668 ta (16,5 %), Yakkasaroy 652 ta (16,1 %) va Yunusobod tumanlari 509 ta (12,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Olmazor tumanida 219 ta (5,4 %), Sergeli 160 ta (4,0 %), Uchtepa 116 ta (2,9%) va Bektemir tumanlarida 97 ta (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1197 ta (29,6 %), savdoda 1012 ta (25,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 925 ta (23,5 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 38 ta (0,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 60 ta (1,5 %), tashish va saqlashda 139 ta (3,4 %), axborot va aloqada 148 ta (3,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 202 ta (5,0 %) va qurilishda 297 ta (7,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyun oyida Toshkent shahrida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 600 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 386 taga ko'paygan yoki 1,5 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 127 ta, Turkiya Respublikasi – 101 ta, Qozog'iston Respublikasi – 79 ta, Xitoy Xalq Respublikasi- 67 ta va Koreya Respublikasi– 39 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 81 ta, sanoatda 71 ta, qurilishda 23 ta, axborot va aloqada 15 ta, va boshqa faoliyat turlarida 59 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga Toshkent shaharda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 55,8 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 9,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 7607 tasi (13,6%) Yunusobod tumaniga, 7067 tasi (12,6 %) Chilonzor tumaniga, 6475 tasi (11,6 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga va 5939 tasi (10,6 foizi) Olmazor tumaniga.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 55,2 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 12,6 mingtasi (22,6 %) - sanoatda, 12,7 mingtasi (22,7 %) - savdoda, 4,8 mingtasi (8,6 %) - qurilishda, 4,7 mingtasi (8,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,7 mingtasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 2,4 mingtasi (4,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 1,0 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,6 mingtasi (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, shuningdek 14,2 mingtasi (25,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun holatiga 6,0 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod tumaniga (858 ta), Chilonzor (756 ta), Mirzo Ulug'bek (719 ta) va Shayhontohur tumanlarida (637 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (138 ta), Sirq'ali (366 ta) hamda Yashnobod (471 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1645 ta), sanoatda (1214 ta), qurilishda (735 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (92 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (121 ta) hamda tashish va saqlashda (257 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 2122 tani tashkil etib, ulardan 2075 tasi yoki 97,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **18,6** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 44,5 % yoki 921 tasi sanoat, 16,5 % yoki 342 tasi savdo, 16,0 % yoki 332 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,6 % yoki 53 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 34 tasi qurilish, 1,6 % yoki 34 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 18 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 15,4 % yoki 320 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

A.Rashidov

tel: (0371) 230-88-31



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan